



RAQAMLI IJTIMOYIY MUHITDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Yunusov Bekmurod Abdimanobovich

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21942890>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 12-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 15-avgust 2026 yil

KEYWORDS

Raqamli ijtimoiy muhit,
huquqbuzarlik, profilaktika,
ijtimoiy-falsafiy tahlil,
kibermakon, huquqiy ong,
ijtimoiy nazorat, kiberxavfsizlik,
deviant xulq-atvor, raqamli
fuqarolik, axborot jamiyati,
huquqiy madaniyat, virtual
muhit, shaxs va jamiyat, ijtimoiy
transformatsiya.

ABSTRACT

Maqolada raqamli ijtimoiy muhitda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar profilaktikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etiladi. Kibermakonda shaxs xulq-atvori, ijtimoiy nazorat mexanizmlari va huquqiy ong transformatsiyasi tahlil qilinib, profilaktika samaradorligini oshirishning falsafiy-metodologik asoslari yoritiladi.

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan raqamli ijtimoiy muhitning shakllanishiga olib keldi. Internet tarmoqlari, mobil kommunikatsiyalar, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va raqamli platformalarning keng qo'llanilishi natijasida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda huquqiy munosabatlari yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur jarayon insonlar o'rtasidagi muloqot shakllarini, axborot almashish usullarini va boshqaruv mexanizmlarini tubdan o'zgartirib, raqamli makonni zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylantirdi. Natijada inson faoliyatining katta qismi virtual muhitga ko'chib, ijtimoiy munosabatlarning yangi ko'rinishlari vujudga kelmoqda.

Ushbu jarayon nafaqat ijtimoiy aloqalar tizimini, balki huquqbuzarliklarning tabiati, shakllari va ularning oldini olish mexanizmlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi natijasida kiberjinoyatchilik, elektron firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish va tarqatish, axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi harakatlar kabi yangi turdagi huquqbuzarliklar paydo bo'lmoqda. Mazkur huquqbuzarliklarning o'ziga xos jihati shundaki, ular ko'pincha anonimlik, transchegaraviylik va yuqori texnologik imkoniyatlardan foydalanish orqali sodir etiladi. Shu sababli an'anaviy huquqni muhofaza qilish mexanizmlari hamda nazorat vositalari ayrim hollarda kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Kibermakon - axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit sifatida [1] an'anaviy ijtimoiy nazorat vositalarining samarasini ma'lum darajada cheklab, yangi turdagi xavf-xatarlarni vujudga keltirmoqda. Virtual makonda insonning xatti-harakati real hayotdagi faoliyatidan ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Anonimlik hissi, masofaviy muloqot imkoniyatlari hamda nazoratning nisbatan murakkabligi ayrim shaxslarning huquqqa xilof harakatlarga moyilligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, internet orqali tarqatilayotgan salbiy axborotlar, destruktiv g'oyalar va noqonuniy kontent yoshlar dunyoqarashi hamda ijtimoiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Bunday sharoitda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqat huquqiy yoki texnik vositalar majmui sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etish zarur. Chunki huquqbuzarliklarning oldini olish jarayoni nafaqat qonunlarni takomillashtirish yoki texnologik himoya vositalarini kuchaytirish bilan, balki shaxsning huquqiy madaniyati, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Profilaktikaning samaradorligi jamiyatda huquqiy ongning rivojlanganlik darajasi, qonunlarga hurmat va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining qay darajada ishlashi bilan belgilanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, huquqbuzarliklar profilaktikasi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. U jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy xavflarni kamaytirish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan faoliyat tizimini ifodalaydi. Raqamli jamiyat sharoitida ushbu institutning mazmuni yanada kengayib, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat va kibergigiyena kabi yangi tushunchalarni ham o'z ichiga olmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli ijtimoiy muhitda huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillarini aniqlash, ularning oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda raqamli jamiyatda xavfsiz va barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayon davlat organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va axborot texnologiyalari sohasi vakillarining o'zaro hamkorligini kuchaytirishni ham talab etadi. Natijada raqamli makonda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha samarali tizimni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli ijtimoiy muhit tushunchasi ijtimoiy falsafada murakkab va ko'p qirrali kategoriya sifatida talqin etiladi. M. Kastels ta'kidlaganidek, tarmoq jamiyati shakllanishi bilan ijtimoiy tuzilmalar, institutlar va xatti-harakatlar mantig'i tubdan o'zgaradi[2] - bu jarayon shaxsning o'zini o'zi anglashi, boshqalar bilan munosabatga kirishishi va ijtimoiy normalarni qabul qilishi usullariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan raqamli muhit ikki o'lchovda namoyon bo'ladi: birinchidan, u obyektiv voqelik - texnik infratuzilma, axborot tizimlari va aloqa kanallari majmui sifatida; ikkinchidan, subyektiv voqelik - unda shakllanadigan yangi turdagi ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor andozalari sifatida. Ushbu ikki o'lchovning o'zaro ta'siri natijasida "raqamli shaxs" fenomeni vujudga keladi - u an'anaviy ijtimoiy nazorat institutlari (oilalar, mahalla, ta'lim

muassasalari) ta'siridan qisman xoli bo'lgan, ammo yangi - algoritmik va tarmoqli nazorat shakllariga tobe bo'lgan subyektdir.

M. Fuko taklif etgan nazorat va intizom konsepsiyasi raqamli muhit kontekstida yangicha mazmun kasb etadi: agar an'anaviy jamiyatda nazorat ko'zga ko'rinadigan institutlar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, raqamli muhitda u "ko'rinmas", ammo total tarzda — ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va bashorat qilish orqali namoyon bo'ladi[3]. Z. Bauman va D. Layon ta'biri bilan aytganda, bu «suyuq nazorat» holati bo'lib, unda chegaralar va subyektlar doimiy ravishda o'zgaruvchan tavsifga ega bo'ladi[4].

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasi ijtimoiy falsafada an'anaviy ravishda deviant xulq-atvorning oldini olish nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. E. Dyurkgeymning anomiya nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi me'yoriy tartibning izdan chiqishi shaxsning ijtimoiy yo'nalishini yo'qotishiga va natijada deviant xatti-harakatlarga moyillik kuchayishiga olib keladi[5].

Raqamli muhit sharoitida anomiya hodisasi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi: an'anaviy me'yorlar tizimi bilan raqamli makondagi norasmiy, tez o'zgaruvchan "normalar" o'rtasidagi ziddiyat shaxsda axloqiy-huquqiy yo'nalishning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa yoshlar o'rtasida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi - ularning ijtimoiy shakllanishi ko'p jihatdan raqamli muhit ta'sirida kechmoqda, bu esa an'anaviy tarbiya institutlarining profilaktik funksiyasini susaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida huquqbuzarliklar profilaktikasi keng ma'noda - huquq-tartibotni saqlash va mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek ularning sodir etilish sabablarini va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy chora-tadbirlar tizimi sifatida belgilangan[6].

Biroq mazkur ta'rif, mohiyatan, ijtimoiy-falsafiy asosga - jamiyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat tamoyiliga tayanadi: profilaktika samarali bo'lishi uchun u nafaqat majburlovchi, balki tarbiyaviy-ma'rifiy, qadriyatli jihatga ham ega bo'lishi lozim.

Raqamli ijtimoiy muhitda sodir etiladigan huquqbuzarliklar bir qator o'ziga xos belgilar bilan tavsiflanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy qismi 16–23 yoshdagi o'smir va yoshlar tomonidan sodir etilmoqda[7], bu esa profilaktika tizimida yoshlarga yo'naltirilgan ijtimoiy-falsafiy yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Birinchidan, raqamli muhitdagi huquqbuzarliklar anonimlik xususiyatiga ega bo'lib, bu shaxsning ijtimoiy javobgarlik hissini susaytiradi - virtual "nom"ning real shaxsdan ajralishi natijasida axloqiy nazorat mexanizmlari zaiflashadi. Ikkinchidan, ushbu huquqbuzarliklar hududiy chegaradan tashqarida, transmilliy tusda sodir etilishi mumkin, bu esa an'anaviy profilaktika vositalarining qo'llanilish doirasini cheklaydi. Uchinchidan, raqamli muhitda axborotning tezkor tarqalishi tufayli deviant xulq-atvor andozalari (misol uchun, ekstremistik g'oyalar, aldanchilik sxemalari) qisqa vaqt ichida keng ommaga yetib borishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunida kibermakondan terrorchilik, ekstremistik va boshqa qonunga xilof faoliyatda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan[1], bu esa raqamli muhitdagi profilaktikaning nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Raqamli muhitda huquqbuzarliklar profilaktikasining samarali tizimini yaratish bir qator falsafiy-metodologik tamoyillarga asoslanishi lozim. Birinchi tamoyil - subyektlilik tamoyili

bo'lib, unga ko'ra profilaktika faqat tashqi majburlov emas, balki shaxsning ichki huquqiy ongi va axloqiy mas'uliyatini shakllantirishga qaratilishi kerak.

Yu. Xabermas ilgari surgan kommunikativ harakat nazariyasiga muvofiq, ijtimoiy tartibot erkin va ochiq muloqot orqali shakllanadigan o'zaro tushunish asosida barqaror bo'ladi[8] - bu yondashuv raqamli muhitda profilaktikaning dialogik, tushuntirish-targ'ibot shakllariga ustuvor ahamiyat berishni taqozo etadi, zero faqat cheklovchi-ta'qiblovchi usullar uzoq muddatli natija bermaydi.

Ikkinchi tamoyil - komplekslilik tamoyili, ya'ni huquqiy, ta'limiy, psixologik va texnologik vositalarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishi. Uchinchi tamoyil — mutanosiblik tamoyili, ya'ni raqamli muhitdagi erkinliklar (so'z, axborot olish erkinligi) bilan ijtimoiy xavfsizlik manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlash zarurati.

Amaliy jihatdan, O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli muhitdagi huquqbuzarliklar oldini olish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, internet tarmog'ini huquqiy tartibga solish mexanizmlari takomillashtirilmoqda[9], shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy choralar ko'rilmoqda[10]. Biroq bu boradagi huquqiy-tashkiliy choralar samarali bo'lishi uchun jamiyatda raqamli huquqiy madaniyat va raqamli fuqarolik tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli ijtimoiy-ma'rifiy strategiya zarur.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli ijtimoiy muhitda huquqbuzarliklar profilaktikasi murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy hodisa bo'lib, u faqat huquqiy-texnik tartibga solish doirasida hal etilishi mumkin emas. Profilaktikaning samaradorligi, avvalo, shaxsning raqamli muhitdagi o'zini tutishi, huquqiy ongi va axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga bog'liq.

Shu munosabat bilan raqamli muhitda huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyatga ega: subyektilik va dialogik yondashuvni kuchaytirish, yoshlarga yo'naltirilgan ijtimoiy-ma'rifiy dasturlarni rivojlantirish, huquqiy va texnologik vositalarni uyg'unlashtirish, shuningdek raqamli huquqiy madaniyatni jamiyatning barcha qatlamlarida shakllantirish. Ushbu yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida barqaror va xavfsiz ijtimoiy muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni, 2022-yil 15-aprel, O'RQ-764-son. — lex.uz/docs/5960604.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell Publishers, 1996. — P. 1-24.
3. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. — New York: Vintage Books, 1995. — P. 195-228.
4. Bauman Z., Lyon D. Liquid Surveillance: A Conversation. — Cambridge: Polity Press, 2013. — P. 3-19.
5. Durkheim E. The Division of Labour in Society. — London: Macmillan, 1984. — P. 39-87.
6. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, 2014-yil 14-may, O'RQ-373-son. — lex.uz/acts/2387357.
7. Kiber makonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish: muammolar va yechimlar // IIV Akademiyasi matbuot xizmati maqolasi. — iiv.uz/oz/news/kiber-makonda-sodir-etilayotgan-jinoyatlarga-qarshi-kurashish-muammolar-va-yechimlar.

8. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 2. — Boston: Beacon Press, 1987. — P. 113–152.
9. O'zbekistonda internet tarmog'ini huquqiy tartibga solishning dolzarb ahamiyati // CyberLeninka. — cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-internet-tarmo-ini-u-u-iy-tartibga-solishning-dolzarb-a-amiyati.
10. Aliyev Sh. Sovershenstvovaniye profilaktiki pravonarusheniy — trebovaniye vremeni // Ijtimoiy va gumanitar fanlar jurnali. — journalss.org/index.php/ust/article/download/2467/2323/4652

